

## XOS SO‘ZLARNING TARJIMADA IFODALANISHI

Shernazarov Ixtiyor Ilhom o‘g‘li

Samarqand davlat chet tillar instituti o‘qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11100399>

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada tarjimaning maqsadi va muhim ahamiyati haqida so‘z boradi. Shu bilan bir qatorda xos so‘zlarning tarjimada ifodalanish masalalari masalasi yoritib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** tarjimaning maqsadi, moddiy va madaniy yodgorliklar, erkin tarjima, so‘zma-so‘z tarjima.

## EXPRESSION OF SPECIAL WORDS IN TRANSLATION

**Abstract.** This article talks about the purpose and importance of translation. In addition, the issue of the expression of special words in translation is highlighted.

**Key words:** purpose of translation, material and cultural monuments, free translation, literal translation.

## ВЫРАЖЕНИЕ СПЕЦИАЛЬНЫХ СЛОВ В ПЕРЕВОДЕ

**Аннотация.** В данной статье говорится о цели и значении перевода. Кроме того, освещается вопрос выражения специальных слов при переводе.

**Ключевые слова:** цель перевода, материальные и культурные памятники, свободный перевод, дословный перевод.

Xalqlarning ma‘naviy merosi bo‘lmish tarjima insonlar hayotini, turmush tarzini yanada rivojlantirishga xizmat qiladi. Xalqlar hech qachon bir-birlaridan mutlaq ajralgan holda yashashlari mumkin bo‘lmagani singari, ularning moddiy va madaniy yodgorliklari, adabiyoti va san‘ati ham hech qachon faqat bir milliy chegara doirasida saqlanib qolmagan. Insoniyat yaratgan eng buyuk san‘at va adabiyot namunalari chegara bilmagan, ular goh o‘zgarib, goh qisqarib, goh qo‘shilib, chatishib ellardan ellarga, tillardan tillarga ko‘chib, yoyilib yurgan.

Umuman olganda, tarjimaning maqsadi-xorijiy lisoniy vositalari yordamida yaratilgan matnning ona tili materiali asosida qayta yaratishdan iborat. Tarjima amaliyoti paydo bo‘libdiki, asliyatni ona tiliga qanday o‘girish lozim, so‘zma-so‘z yoki erkin tarzda, degan masala tarjimonlar oldida ko‘ndalang turgan muammodir. Bular barcha davrlarda turli xil ko‘rinish va fikrga ega bo‘lgan. XX asrning boshlarida ijod qilgan san‘atkorlar so‘zma-so‘z tarjimini yoqlab chiqishgan. Ular o‘z amaliyotida faqat tarjimaning ushbu turiga yondashishganlar.

Yana boshqa ijodkorlar bo‘lsa, erkin tarjimini afzal ko‘rib, ular biror-bir asar yoki axborotni erkin ravishda berish lozim degan fikrlarga tayanishgan. Shunday ekan, har bir tarjima turi, muallif va tarjimonning savodxonligi, estetik didi va tushunchalari nuqtayi nazaridan ko‘rib chiqqan holda yondashilgan. Quyida tarjima turlari bo‘yicha fikr yuritimiz. Ijodiy tarjima-bu asliyat lisoniy vositalari matniy ma‘nolar va uslubiy vazifalari umumxalq tili, grammatik qoidalari bilan hamohanglikda qayta yaratiladi. Lisoniy vositalarning milliy, tarixiy, ijtimoiy va obrazli hissiy xususiyatlari asliyatga xos va mos tarzda talqin etiladi. Asar sahifalarida muayyan uslubiy maqsadlar uchun qo‘llanilgan fonetik hamda leksik-grammatik nutqiy chekinishlar va vazifalariga muvofiq muqobil lisoniy vositalar yordamida tiklanadi. Bularning barchasi muallif maqsadining kitobxonga yetib borishi uchun imkon yaratadi. So‘zma-so‘z tarjima muallif matnini hijjalab

o'g'irish orqali uning mazmuniy, vazifaviy uyg'unligini soxtalashtiradigan, hissiy ta'sirchanlik xususiyatini badiiy obrazlar asosini xiralashtiradigan tarjima tili me'yor va madaniyatini barbod etadigan, binobarin, asliyatning tugal-adekvat tarjimasi sifatida qabul qilib bo'lmaydigan ikkilamchi matnga aytiladi. Bu tarjima turida asliyat tarkibidagi so'z birikmalari, barqaror iboralar grammatik qurilish, so'z tartibi aksariyat hollarda tarjima tili qonuniyatlariga moslashtirilmaydi. Ko'pchilik lisoniy vositalar matniy holatlariga, vazifaviy jihatlariga, davriy va milliy xususiyatlariga qarab emas, balki lug'aviy ma'nolari asosida o'g'iriladi. Bu hol milliy, tarixiy va hissiy ta'sirchan lisoniy vositalarning qo'shimcha xususiyatlaridan holi uslubiy betaraf so'z va birikmalar yordamida talqin etilishiga olib keladi.

Undan tashqari, yana erkin tarjima turi haqida so'z yuritadigan bo'lsak, ushbu tarjima turiga o'tgan asrning o'rtalarida tez-tez murojat qilib turilgan. Bunda tarjimon asliyatning shaklini to'la e'tibordan soqit etgan holda mazmunini esa o'z so'zlari bilan sodda va qisqa hikoya qilib bergan. Umuman olganda, tarjimoni umumiy manbalarga asoslangan holda ikkiga bo'lishimiz mumkin.

Bular **og'zaki** va o'z navbatida, **yozma** tarjimalar bo'lishi mumkin. Ularning hech biri biror-bir kamchilikka uchramagan holda muallif hamda tarjimonning savodxonligi va salohiyati umumlashmasi ko'rinishida namoyon bo'ladi. Ushbu tarjima turlaridan tarjimonlar o'z davrida juda keng ko'lamda foydalanishgan.

Xalqlar turmush tushunchalarini anglatadigan lisoniy vositalar xos so'zlar, deyiladi. Muayyan bir xalq, millat va elatga xos tushuncha, narsa va hodisalarni aks ettiradigan lisoniy vositalar badiiy asarning milliy xususiyatini belgilaydigan asosiy vositalardan hisoblanadi.

Demak, har qanday badiiy-g'oyaviy barkamol asar o'zida birday ham baynalmilallikni, ham milliylikni mujassam etishi bilan ajralib turadi. Baynalmilallik asarning mazmuni va g'oyasi, milliylik esa uning shaklida namoyon bo'ladi. Badiiy asarning shakli qator jihatlar bilan birga uning tilini, xususan lug'at tarkibini o'z ichiga oladi: asarning milliy xususiyati asosan leksik va frazeologik birliklar yordamida yaratiladi.

Baynalmilallik bilan bir qatorda milliylik xususiyatini ham o'zida mujassam etgan tilning lug'at tarkibi o'zi mansub bo'lgan til jamoasining moddiy-ijtimoiy hayotini, chunonchi, milliy urf-odat va an'alarini, geografik tasavvurini, ma'naviyati va dunyoqarashini, diniy e'tiqodini, axloqiy me'yorlarini, tafakkur yo'nalishini moddiy aks ettiradi. Tillar orasidagi tafovut esa odatda bir xalq moddiy hayotida mavjud muayyan tushunchalar, voqea-hodisalar, urf-odatlarining ikkinchi xalq turmush tarzida uchramasligi, shu tufayli ular nomlarining ham ayni xalq tilida tabiiy ravishda yo'qligi bilan izohlanadi. Bundan tashqari, lug'aviy ekvivalentlik munosabatida bo'lgan ayrim ikki til juftliklari bir-birlaridan biror xususiyatlari bilan o'ziga xos ravishda farq qilishlari mumkin. Bu hol til birliklarining milliy xususiyatini belgilash baravarida ularning tarjimada o'zaro almashinuvlariga to'sqinlik qiladi.

Asliyatning o'ziga xosligi asosan uning tarkibidagi lisoniy vositalarning milliy xususiyati bilan belgilanar ekan, asliyatning badiiy-g'oyaviy zaminini asliymon tiklash asarning milliy bo'yog'ini qayta yaratish bilan bog'liqdir. Shuning uchun ham tarjimada milliy xususiyatni tiklash masalasi keyingi payitlarda tarjimonlarning ham, tarjimashunoslarning ham e'tiborini o'ziga borgan sari ko'proq tortib kelmoqda.

Chunki tarjimaviy nuqsonlarning ko'pchiligi milliy xususiyatni aks ettiradigan til vositalari ulushiga to'g'ri kelmoqda. Zero, tarjima amaliyotida hanuzgacha yo'l qo'yib kelinayotgan xato va kamchiliklarning ko'pchiligi tarjimada milliy xususiyatni tiklash bilan bog'liq bo'lib, bu masala hanuzgacha nazariy jihatdan ham, amaliy xususdan ham qoniqarli darajada hal qilingan emas.

Ilmiy adabiyotda xalqlar turmush tushunchalarini ifoda etadigan leksik birliklarni qaysi paytlarda tarjima amaliyotining qanday sinalgan usullari vositasida talqin etish lozimligi haqida yagona fikr uchramaydi. Tarjimaning ijodiy jarayonligi tufayli, bunday fikrning uchrashi ham goho amri mahol. Biroq bayon etilgan ilmiy-tanqidiy fikr-mulohazalar tarjimonning muayyan holatda qanday yo'l tutishi lozimligi haqidagi tasavvurini boyitadi, uning amalda yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan turli-tuman tasodifiy tugunlarni yechishga ko'maklashadi, unda amaliy mushkulotlarni mohirona yengish malakasi hosil qilinadi. Bunday, kishilar turmush tushunchalarini anglatadigan xos so'zlarni tarjimada adekvat talqin etish asl nusxa milliy xususiyatini kitobxonga to'la-to'kis etkazib berishdek murakkab muammoning eng mas'uliyatli va o'ta mushkul masalalaridan hisoblanadi.

Zero, bunday holda tarjimon oldida o'z xalqi uchun notanish, binobarin, nomlari ham tilda mavjud bo'lmagan tushuncha, narsa va hodisalarni tarjima tili sohiblariga to'la anglatish vazifasi ko'ndalang bo'lib turibdi. O'zbek tilida odam tana a'zolarining nomlari juda ko'p hollarda turli ma'no anglatuvchi iboralar tarkibida asosiy unsur vazifasida keladi.

Masalan, "bosh" so'zi quyidagi hollarda asosiy obraz yaratuvchi so'z sifatida birikmalar tarkibida keladi: *bosh chayqamoq, bosh tortmoq, bosh qo'shmoq, boshi ochiq, boshidan oyoq, boshga ko'tarmoq, boshi bilan sho'ng'imoq, boshi aylanmoq, boshini aylantirmoq, boshiga yetmoq, boshiga urmoq, boshga qilich kelsa ham, boshida danak (yong'oq) chaqmoq, boshidan oshib yotmoq, boshidan soqit qilmoq, boshi yostiqa yetmoq, boshi ko'kda (osmonda), boshini ikkita qilmoq, boshini bir joyga qovushtirmoq, boshini biriktirmoq, boshini olib ketmoq, bosh ko'tarmay, bosh ko'tarmoq, bosh og'rig'i, bosh(i) qotmoq, boshi oqqan (tomonga), bosh suqmoq, bosh egmoq.* So'zning fransuz tilidagi muqobil ekvivalenti bo'lmish "tête" so'zi ham juda ko'p vaziyatlarda turli-tuman vazifalarda keladi. O'zbekcha "bosh" va fransuzcha "tête" so'zlarining turli iboralar tarkibidagi vazifalari bir biridan tubdan farq qiladi. Fikrimizni isboti sifatida quyidagi misollarni ko'rib chiqamiz.

TÊTE – BOSH - *enlever ton chapeau* — bosh kiyimni yechmoq, *incliner votre tête* — bosh egmoq, *regarder le sol* — yerga qaramoq, *soulever, lever la tête* — boshni ko'tarmoq (tepaga qarash maqsadida), *bouger la tête* — bosh chayqamoq, *hocher la tête* — bosh siltamoq, *faire non de la tête* — e'tiroz bildirmoq, *secouer la tête* — boshini shartta burmoq, *garder la tête haute* — faxrlanmoq, *de la tête aux pieds / talons, de la tête aux pieds* — boshdan oyoq, *plus grand d'une tête* — boshdan baland, *une bonne tête, une tête forte* — aylanmaydigan bosh (ichib mast bo'lmaydigan), *une bonne tête pour les hauteurs* — balandlikda aylanib ketmaydigan bosh, *une mauvaise tête pour les hauteurs* — balandlikda aylanib ketadigan bosh, *gagner par une tête*, bosh og'rig'i ( asosan zarba va alkagol ta'sirida) *utiliser sa tête* — fahmi etmoq, kallasini ishlamoq, tushunmoq; *entasser, remplir, bourrer la tête de qn* — biror kimning boshini mayda chuydalar bilan to'ldirmoq, *comptes qu'il tenait dans sa tête* — xisob-kitoblarni miyada saqlamoq; *avoir une (bonne) tête (en haut) sur ses épaules* — elkada aqilli boshni ko'tarib yurmoq; *avoir une vieille tête sur de jeunes épaules* — sog'lom fikrlovchi; *Ce n'est pas de votre faute si vous n'avez pas la*

*tête pour la politique.* (G. B. Shaw) —Siyosatni tushunmasligingiz aybingiz emas. *garder la tête froide, garder la tête-* tinchlikni saqlamoq; *perdre la tête* — tinchini yo'qotmoq, *tête froide, tête de niveau* — sovuqqon.

Xalqlar turmush tushunchalarini anglatadigan so'zlar shubxasiz badiiy yodgorliklarning milliy bo'yog'ini, uning o'ziga xosligini tashkil etadi. Asarning milliy fazilatini belgilaydigan yana shunday omillar ham uchrab turadiki, ular xalqlarning milliy-madaniy ruhiyati bilan bog'liq bo'ladi.

O'zbek odatida eshigiga yuzlangan har qanday kishiga avvalo "Keling!" deb, uni bunga ehtiyoj bo'lmagan taqdirda ham ichkariga taklif etadi. Bu xalqimizning mexmondo'stligi bilan bog'liq milliy an'anadir. Kelgan kishini ichkariga kiritish niyati bo'lmagan taqdirda ham baribir avval "Keling!" deyiladiyu, so'ngra "Xo'sh, hizmat!" deb unga murojaat qilinadi. Bunday payitda "keling" so'zi muloqotga samimiylik baxsh etib, kelgan kishining dilini yumshatadi, uning xijolatchilikdan chiqaradi.

Binobarin, bunday an'anaviy tus olgan o'zbekona rasm rusmlarni tarjimada bekami-ko'st aks ettirish xorijiy kitobxon tasavvurini xalqimizning o'ziga xos hayot tarzi bilan boyitadi.

#### REFERENCES

1. Алексеев Г.П, Скепеская Г. И, Тарасова А.Н, Рощупкина Э.А. Grammaire pratique du français moderne . - Moscou: ВИИ. 1985. -189 p.
2. Balzak, Onore de. Gorio Ota. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi badiiy adabiyot nashriyoti, 1968, 296 bet.
3. Balzak, Onore de. Yevgeniya Grande. T.: "Toshkent" badiiy adabiyot nashriyoti, 1964, 212 bet.
4. Salomov G'. Tarjima nazariyasiga kirish. – Toshkent: O'qituvchi, 1978. – 220 b.
5. Salomov G'. Tarjima nazariyasi asoslari. - Toshkent: O'qituvchi, 1983 . - 220 b.
6. Salomov G'. Adabiy an'ana va badiiy tarjima.- Toshkent: Fan, 1980. - 158 b.
7. Salomov G'. Tarjima tashvishlari. – Toshkent, G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1983. - 190 b.
8. Salomov G'. Til va tarjima. – Toshkent: Fan, 1966. – 280b.
9. Salomov G', N.Komilov. Do'stlik ko'priklari. - T.: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1980. – 221 b.
10. Sodiqov Z. So'z ma'nosi // Tafakkur. – Toshkent, 2000 - № 3. - B.116-118.
11. Hojiev A. Tilshunoslik terminlari lug'ati. – Toshkent: Fan, 2002.
12. Homidov H., Sh.Abdullaeva, S.Ibrohimova. Adabiyotshunoslik terminlari lug'ati. -Toshkent: O'qituvchi, 1970.- 288 b.